

Date: 3<sup>rd</sup> April-2025

**TIKUVCHILIK ISHLAB CHIQARISH TEXNOLOGIYASI FANINI O'QITISHDA  
KICHIK GURUHLARDA ISHLASH.**

**Kayumova Nazira Abduraximovna**

Respublika imkoniyati cheklangan shaxslar  
uchun ixtisoslashtirilgan maxsus texnikum o'qituvchisi

**Annotatsiya:** O'qituvchi o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir etishda yoshi, xususiyati, qiziqishlari, tarbiyalanganlik darajasi, ko'zlangan maqsadni hisobga olib, tarbiyani metodini to'g'ri tanlay olishi lozim. U qo'llayotgan metod va vositalar ta'sirida talabaning ongi va xulqiga o'z shaxsini o'zgartirish istagi vujudga keladi. Shaxs o'zini - o'zi tarbiyala-masa, tarbiyadan ko'zlangan natijaga erishib bo'lmaydi. Har bir talaba o'zini - o'zi tarbiyalamog'i, o'zida eng yaxshi insoniy fazilatlarni tarkib toptirishi uchun astoydil hara-kat qilmog'i lozim.

**Kalit so'zlar:** Texnologiya fani, ta'limiylar maqsad, tarbiya maqsad, rivojlantiruvchi maqsad, tashkiliy qism.

Texnologiya fani murakkab fan hisoblanib bizning imkoniyatlari cheklangan o'quvchilarimizga tikuvchilik ishlab chiqarish texnologiyasi fanini o'qitish jarayonida har xil ta'lim metodlaridan foydalanamiz, bizning o'quvchilarimizga kichik guruhlarda ishlashning afzallik tomonlaridan biri, berilgan topshiriqlarni o'quvchilar mustaqil bajarishadi, bir-birlari bilan muloqatga kirishadi, fikr almashadi va salohiyati oshadi. Dars jarayonida o'qituvchi guruh o'quvchilarini soniga qarab 3 yoki 4 ta kichik guruhlarga bo'lganda, o'qituvchi o'zini oldiga maqsadlarni qo'yishi kerak: ta'limiylar, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi.

Ta'limiylar maqsad - tikish texnologiyasi haqidagi bilimlarini, zamonaviy tikish texnologiyani o'zlashtirish orqali yanada takomillashtirish.

Tarbiya maqsad - axloqiy, aqliy, jismoniy, huquqiy, estetik, iqtisodiy, ta'lim – tarbiya ruhida o'quvchilarni tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi maqsad – o'quvchining dars jarayonida faolligini oshirish. Mustaqil va ijobjiy fikrlashga o'rgatish, nutqini rivojlantirish. Kichik guruhlarda ishlash metodi orqali dars o'tishning samarali tomoni shulardan iboratki, o'quvchilarni nazariy bi-limlarni egallab, amaliyotda qo'llash, bilimlar bo'yicha mashqlar qilib ko'nikma hosil qilish, ko'nikmalarni takomillashtirib, malaka darajasiga etkazish mumkin, darsdan ku-tilayotgan natijalarga erishish, o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liqdir. O'qituv-chining asosiy vazifasi o'quvchilarga dars jarayonini to'g'ri va oqilona tashkil etish va o'rgata borishi lozim.

Kichik guruhlarda ishlash metodi asosida nazariy dars o'tkazish.

Tashkiliy qism: xona tozaligini tekshirish, salomlashish, formasini tekshirish, jurnal bo'yicha o'quvchilar mashg'ulotga qanchalik kelganlarini tekshirish, davo-matni aniqlash.

Kirish qismi: O'tilgan dars yuzasidan suhbat o'tkazish, mavzuni savol-javob asosida mustahkamlash, o'tgan darsni tahlil qilish. Yangi mavzuni bayon qilish, doskaga mavzuni

Date: 3<sup>rd</sup> April-2025

yoziб, bugungi darsda qanday ishlari o'рганишни va bajarilishini so'zlab va ko'rsatib beriladi. Guruh o'quvchilarini soniga qarab, kichik guruhlarga ajratib, mavzuga doir tarqatma materiallarni har – bir guruhga berib, o'qituvchi mavzu rejasini doskaga yozib, yangi mavzuni tushuntira boshlaydi. Guruh o'quvchi-lar kichik guruhlarga bo'linganlaridan so'ng, mavzuga doir tarqatma materiallarni olib o'qiy boshlaydilar, o'qituvchi har bir o'quvchini dars jarayonida nazoratga oli-shi kerak bo'ladi. Dars o'quvchilar bilan qiziqarli, hatto darsga aloqador bo'lмаган mavzular to'g'risidagi suhbat bilan boshlanadi. Iloji bo'lsa, darsga bog'liq bo'lgan mavzular yuzasidan suhbatni boshlash kerak. Buning uchun, masalan, qiziqarli kashfiyat, yangilik yoki hikoya tanlanishi mumkin. Bularning barchasi birinchi dars mobaynida o'quvchilarning kayfiyati ko'tarilishiga, shu sohaga qiziqishiga yoki keying darslarda o'quvchilar o'rganadigan faniga e'tiborini qaratishiga yordam be-radi. Agar dars birinchi yangi o'quvchilar guruhida o'tilayotgan bo'lsa, o'qituvchi o'zini qisqacha tanishtirib, o'quvchilarga ham o'zlarini tanishtirish imkoniyatini be-rish kerak. Bu o'quvchilarda ishonch tug'diradi, o'quvchilar o'zlariga bildirilayot-gan hurmatni his qiladilar. Buning natijasida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida mulo-qatga kirishish jarayoni boshlanadi. Yangi mavzuni boshlashdan avval, o'tilgan mav-zular qisqacha, umumlashtirilgan holda qaytarilishi kerak. O'quvchilarga mavzular-ga mos tarqatma materiallar berilmog'i lozim. Bu o'quv jarayonini yengillashtiradi. Mavzuga kirilmay turib, tarqatma materiallar beriladi. Ularni mavzuga monand ra-vishda birin ketin tarqatish, ularni qo'yib chiqish uchun yetarlicha vaqt berish va boshqa o'quvchilar e'tiborini axborotga qaratish uchun ovoz chiqarib o'qitish maqsadga muvofiq bo'ladi. Tikuvchilik ishlab chiqarish texnologiya fanini boshqa o'x-shash fanlar bilan bog'lab o'tilsa, o'quvchilarda fanga bo'lgan qiziqish yanada ko'proq uyg'onadi. Guruh o'quvchilari kichik guruhlarda ishlash natijasida mavzuni eshitadi, tarqatma materialdagi mavzuni olib daftarga ko'chiradi.

Guruhrar ichida tez va sekin ishlaydigan o'quvchilar bir-birlariga yordam ber-ishlari va e'tiborli bo'lishlari lozim. O'qituvchi sekin ishlaydigan o'quvchilar bilan yakka tartibda ishlash kerak bo'ladi. O'quvchilar dars jarayonida mavzu bo'yicha fikr almashishadi, kichik guruhlarda ishlash jarayonida mavzu bo'yicha fikr g'oya-lari jamlanadi va guruhlanadi. O'qituvchi yangi mavzuni yakunlaydi, kichik guruh-larga mavzu bo'yicha topshiriqlar beriladi, har bir guruh berilgan topshiriqni mus-taqil bajaradi, ishiga yakun yasaydi, mavzuni o'zlashtirilganligini savol - javob aso-sida tekshiradi, zarurat bo'lsa, dars materialini o'quvchilar qanchalik o'zlashtirga-nini aniqlash uchun savollar berish (dars jarayonida yo'l qo'yilgan xato va nuqson-larni tuzatish maqsadida). Har bir kichik guruh taqdimotga tayyorlanishadi. O'qituv-chi taqdimotning boshlanishini e'lon qiladi. Guruhlarning ishini va har ishini va har bir o'quvchining faoliyatini alohida baholaydi. Har bir topshiriq yoki mashqdan ke-yin o'quvchilar o'zlarini bajargan ishlarini baholashlari lozim. Boshqa bir imkoniyat esa natijalarni guruhlarda ochiq - oydin va samimiy muhokama qilishdan iboratdir. O'quv fani oxirida yakuniy suhbat uchun vaqt ajratilishi kerak. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarning natijalari, ularning amalga oshgan va oshmagan ishlari, shuningdek, o'qituvchilarning o'z natijalari yuzasidan mulohaza yuritishlari uchun yaxshi imko-niyatdir. O'qituvchi guruh o'quvchilarini savol - javob

Date: 3<sup>rd</sup> April-2025

asosida baholaydi. Uyga va-zifa qilib, navbatdagi dars topshirig‘ini beradi. O‘qituvchi o‘quvchilarga navbatdagi darsga tayyorlanib kelishi kerakligini eslatib o‘tadi. Kichik guruhlarda ishslash yoki mustaqil ravishda topshiriqlarni yechish va natijalarni taqdim etish samarali o‘qitish metodlari hisoblanadi.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, agar o‘qituvchilarni innovation faoliyatida ish olib borishni yo‘lga qo‘ysak, O‘qituvchilarni yangilikka intiluvchanligi, ularni izlab topishga, ta’limda qo‘llashga, ko‘nikma, malakasi shakllanadi. Uzluksiz o‘z ustida ishslash ko‘nikmasi shakllanadi, innovasiya, ilg‘or pedagogik texnologiya, in-terfaol muhitda ta’limni olib boradi, o‘quvchilarni o‘quv jarayoni harakatlantiruvchi kuchiga aylantiradi. U esa ta’limda sifat va samaradorlikni ta’minlaydi. Darsni in-sonparvarlashtirish, hamkorlik, o‘quvchiga g‘amxo‘rlik, e’zozlash, kechirimli bo‘lish, o‘zini – o‘zi rivojlantirishga, psixologik sog‘lom fikr yuritishga muhit yaratish, ijodiy muhit, do‘stona munosabatda ish yuritish, o‘quvchi extiyoji, qiziqishi, shax-siy fazilatini, iqtidorini ishga solish, bilim olish bosqichlarini oshiradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. B. Ziyomuxamedov. «Pedagogik mahorat asoslari». Toshkent - 2012 yil.
2. A. Karimjonov. «Ta’lim tizimini boshqarish asoslari» Toshkent-2012 yil.
3. B. Ziyomuxamedov. « Pedagogik texnologiya – Zamonaliv o‘zbek milliy modeli». Toshkent - 2012 yil.